



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: PUNKTUATSION MUAMMO VA YECHIMLAR**

**Xabibullayeva Shoirra Shukurillayevna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida punktuatsiya tizimining nazariy asoslari, yozma nutqdagi funksional ahamiyati hamda zamonaviy kommunikativ muhitda yuzaga kelayotgan punktuatsion muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida vergul, tire, defis, ikki nuqta, nuqtali vergul, qo‘shirnoq va ko‘pnuqtaning qo‘llanishida kuzatilayotgan normativ nomuvofiqliklar o‘rganildi. Shuningdek, internet diskursi, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor yozishmalar ta‘sirida o‘zbek yozma nutqida yuz berayotgan punktuatsion soddalashuv jarayonlari ilmiy jihatdan izohlandi.

**Kalit so‘zlar:** punktuatsiya, tinish belgisi, yozma nutq, sintaksis, o‘zbek tili, vergul, tire, qo‘shirnoq, punktuatsion me‘yor, raqamli kommunikatsiya.

## **УЗБЕКСКАЯ ЛИНГВИСТИКА: ЗАДАЧИ И РЕШЕНИЯ ПО ПУНКТУАЦИИ**

**Хабидуллаева Шои́ра Шукуриллаевна**

Термезский университет экономики и сервиса, преподаватель

### **Аннотация**

В данной статье анализируются теоретические основы системы пунктуации в узбекской лингвистике, её функциональное значение в письменной речи и проблемы пунктуации, возникающие в современной коммуникативной среде. В ходе исследования были изучены нормативные несоответствия, наблюдаемые в использовании запятых, тире, дефисов, двоеточий, точек с запятой, кавычек и двоеточий. Также научно объяснены процессы упрощения пунктуации, происходящие в узбекской письменной речи под влиянием интернет-дискурса, социальных сетей и мессенджеров.

**Ключевые слова:** пунктуация, знак препинания, письменная речь, синтаксис, узбекский язык, запятая, тире, кавычки, правила пунктуации, цифровая коммуникация.

## **UZBEK LINGUISTICS: PROBLEMS AND SOLUTIONS IN PUNCTUATION**

**Xabibullayeva Shoirra Shukurillayevna**

Termez University of Economics and Service, Lecturer

### **Abstract**

This article analyzes the theoretical foundations of the punctuation system in Uzbek linguistics, its functional significance in written speech, and punctuation problems arising in the modern communicative environment. During the study, the normative inconsistencies observed in the use of commas, dashes, hyphens, colons, semicolons, quotation marks, and colons were studied. Also, the processes of punctuation simplification occurring in Uzbek written speech under the influence of Internet discourse, social networks, and instant messaging were scientifically explained. The article interprets the issue of punctuation not only as a technical writing phenomenon, but also as a complex system related to syntax, semantics, pragmatics, and text linguistics. Based on the results of the study, scientific and practical recommendations were developed to increase punctuation literacy, improve the normative base, create electronic corpora, and introduce functional punctuation methodology into the educational process.

**Keywords:** punctuation, punctuation mark, written speech, syntax, Uzbek language, comma, dash, quotation mark, punctuation standard, digital communication.

Til inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi eng muhim kommunikativ tizim hisoblanadi. Nutqning og‘zaki shaklida fikr ohang, pauza, urg‘u va intonatsiya orqali ifodalansa, yozma nutqda ushbu vazifani asosan tinish belgilari bajaradi. Shu sababli punktuatsiya yozma nutqning ichki mantiqini, sintaktik tuzilishini va semantik yaxlitligini ta‘minlovchi muhim lingvistik vosita sanaladi. Punktuatsiya termini lotincha *punctum*, ya‘ni “nuqta” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yozma nutqda fikrning grammatik, semantik va uslubiy jihatdan bo‘linishini ifodalovchi belgilar tizimini anglatadi. Zamonaviy tilshunoslikda punktuatsiya faqat texnik yozuv vositasi sifatida emas, balki yozma tilning mustaqil struktur mexanizmi sifatida baholanadi. G. Nunbergning tadqiqotlarida punktuatsiya

ogʻzaki nutqning oddiy grafik koʻchirmasi emas, balki yozma nutqning oʻziga xos grammatik tizimi ekanligi taʼkidlanadi [10].

Bugungi kunda punktuatsiya masalasining dolzarbligi yanada ortib bormoqda, chunki ijtimoiy tarmoqlar, tezkor yozishmalar va raqamli platformalar yozma nutq madaniyatiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Xususan, nuqtaning tushirib qoldirilishi, ortiqcha undov belgilaridan foydalanish, emoji va grafik birliklar orqali hissiy maʼno ifodalash holatlari keng tarqalmoqda. Bu esa anʼanaviy punktuatsion meʼyorlarning qayta koʻrib chiqilishini talab etmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi oʻzbek tilshunosligida punktuatsiya muammolarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning lingvistik sabablarini aniqlash va zamonaviy yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Puntuatsiya masalasi umumiy va xususiy tilshunoslikda koʻplab tadqiqotlar markazida boʻlib kelgan. Rus tilshunosligida L. Shcherba punktuatsiyani “yozma nutqning sintaktik musiqasi” deb ataydi. Mazkur qarash punktuatsiyaning faqat grammatik emas, balki ekspressiv vazifa ham bajarishini koʻrsatadi.

Yevropa tilshunosligida D. Kristal internet tilini tahlil qilgan ekan, raqamli kommunikatsiya yozma va ogʻzaki nutq oʻrtasida yangi gibridd shaklni yuzaga keltirayotganini alohida taʼkidlab oʻtadi [3]. Bu jarayon oʻzbek tilida ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda punktuatsion soddalashuv va emotsional belgilar orqali maʼno ifodalash holatlari tobora kengayib bormoqda.

Soʻnggi yillarda grafemika va yozuv tizimlari tadqiqotlarida punktuatsiya alohida ilmiy yoʻnalish sifatida qaralmoqda. D. Meletis va J. Romstadt punktuatsiyani yozuv tizimining mustaqil tarkibiy qismi sifatida oʻrganish zarurligi haqidagi fikrlarni ilgari suradilar. Ularning fikricha, punktuatsiya faqat yordamchi belgilar tizimi emas, balki yozma muloqot jarayonining muhim struktur mexanizmlaridan biridir.

Oʻzbek tilshunosligida punktuatsiya boʻyicha dastlabki ilmiy qarashlar jadid matbuoti davrida shakllana boshlagan. Bu davr oʻzbek yozma nutqining yangilanishi, matbuot tilining rivojlanishi, adabiy til meʼyorlarining barqarorlashuvi hamda yozuv madaniyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi. XX asr boshlarida jadid ziyolilari tomonidan nashr etilgan gazeta va jurnallarda fikrni aniq, ravon va tushunarli ifodalashga alohida eʼtibor qaratildi. Natijada tinish belgilaridan foydalanish zarurati kuchaydi, yozma matnda gap chegarasi, mantiqiy pauza, izohlash, sanash, ajratish kabi munosabatlarni ifodalash ehtiyoji punktuatsiya masalalarini amaliy va nazariy jihatdan dolzarb muammoga aylantirdi.

Puntuatsiya masalalari XX asr boshlaridan boshlab ilmiy jihatdan shakllana boshladi. Jadid matbuoti, alifbo islohotlari va normativ grammatikaning rivojlanishi oʻzbek yozma madaniyatining taraqqiyotida muhim bosqich boʻldi. Ayniqsa, Fitrat, Elbek, Qayum Ramazon kabi jadid maʼrifatparvarlari til, imlo, yozuv va matn madaniyati masalalariga alohida eʼtibor qaratib, oʻzbek adabiy tilining ilmiy asoslarini yaratishga katta hissa qoʻshdilar. Ularning qarashlarida punktuatsiya alohida mustaqil nazariya sifatida toʻliq shakllanmagan boʻlsa-da, yozma nutqni tartibga solish, fikrni aniq ifodalash va matnning mantiqiy yaxlitligini taʼminlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Keyingi bosqichda A. Gʻulomov, M. Asqarova, N. Mahmudov, A. Nurmonov kabi olimlarning ilmiy ishlari oʻzbek punktuatsiyasining nazariy asoslarini chuqurlashtirishda muhim oʻrin tutdi. Bu davrda punktuatsiya faqat imlo qoidalarining tarkibiy qismi sifatida emas, balki sintaksis, semantika, uslubiyat va matn lingvistikasi bilan bogʻliq murakkab til hodisasi sifatida talqin qilina boshlandi. Tinish belgilarining qoʻllanishi gapning grammatik tuzilishi, mazmuniy munosabatlari, intonatsion xususiyatlari va muallifning uslubiy maqsadi bilan bogʻliq holda oʻrganildi.

Akademik A. Gʻulomov punktuatsiyani sintaktik qurilish bilan chambarchas bogʻliq hodisa sifatida baholab, tinish belgilarining qoʻllanishi gapning grammatik strukturasi asosida belgilanishini taʼkidlaydi. Uning fikricha, gap tarkibidagi boʻlaklar oʻrtasidagi munosabat, qoʻshma gap qismlarining bogʻlanish usuli, ajratilgan boʻlaklar, kirish soʻz va kiritmalar tinish belgilarini qoʻllashda asosiy mezonlardan hisoblanadi. Shu jihatdan A. Gʻulomov qarashlarida punktuatsiya sintaktik meʼyorni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon boʻladi.

M. Asqarova esa punktuatsiyani nafaqat sintaktik, balki semantik va uslubiy hodisa sifatida talqin qiladi. U tinish belgilarining notoʻgʻri qoʻllanishi matn mazmunining buzilishiga, fikrning notoʻgʻri anglanishiga yoki muallif maqsadining oʻzgarib ketishiga olib kelishini qayd etadi [2]. Bu yondashuv punktuatsiyaning faqat grammatik qoidalar yigʻindisi emas, balki matnning mazmuniy aniqligi, mantiqiy izchilligi va uslubiy taʼsirchanligini taʼminlovchi vosita ekanligini koʻrsatadi. Masalan, vergul, tire yoki ikki nuqtaning oʻrinli qoʻllanishi gapdagi mazmuniy urgʻuni kuchaytiradi, fikr qismlari oʻrtasidagi sabab-qibat, izohlash, qarama-qarshilik yoki aniqlashtirish munosabatlarini ravshanlashtiradi.

O‘zbek tilshunosligida punktuatsiya bo‘yicha dastlabki ilmiy qarashlar jadid matbuoti davrida shakllandi. Punktuatsiya masalalari XX asr boshlaridan boshlab ilmiy jihatdan shakllana boshladi. Jadid matbuoti, alifbo islohotlari va normativ grammatikaning rivojlanishi o‘zbek yozma madaniyatining taraqqiyotida muhim bosqich bo‘ldi. Ayniqsa, Fitrat, Elbek, Qayum Ramazon, A. G‘ulomov, M. Asqarova, N. Mahmudov, A. Nurmonov kabi olimlarning ishlari punktuatsiyaning nazariy asoslarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etdi.

Akademik A. G‘ulomov punktuatsiyani sintaktik qurilish bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida baholab, tinish belgilarining qo‘llanishi gapning grammatik strukturasi asosida belgilanishini ta’kidlaydi. M. Asqarova esa punktuatsiyani nafaqat sintaktik, balki semantik va uslubiy hodisa sifatida talqin qilib, tinish belgilarining noto‘g‘ri qo‘llanishi matn mazmunining buzilishiga olib kelishini qayd etadi [2].

Keyinchalik punktuatsiya normativ grammatikaning tarkibiy qismi sifatida tizimlashtirildi. A. Nurmonov sovet davrida o‘zbek punktuatsiyasi rus punktuatsiyasi modeli asosida kodifikatsiya qilinganini qayd etadi [11]. N. Mahmudov va A. Madvaliyev tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari” zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasining eng muhim normativ manbalaridan biri hisoblanadi [2]. Mazkur qo‘llanmada vergul, nuqta, tire, qo‘shirnoq, ikki nuqta, qavs va boshqa tinish belgilarining qo‘llanish me‘yorlari izchil bayon qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy, distributiv va funksional tahlil metodlaridan unumli foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida o‘zbek tilidagi tinish belgilarining nazariy asoslari va amaliy qo‘llanishi o‘rganildi. Qiyosiy metod asosida o‘zbek punktuatsiyasi rus, ingliz va turk punktuatsiyasi bilan solishtirilib, qiyosiy tahlil qilindi. Distributiv tahlil orqali tinish belgilarining gap strukturasiidagi o‘rni va sintaktik muhiti tadqiq qilindi.

Tadqiqot materiali sifatida ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar, OAV matnlari, Telegram va ijtimoiy tarmoq postlari, maktab va oliy ta’lim yozma ishlari tahlil qilindi. Tahlillarni amalga oshirish jarayonida quyidagi mezonlarga asosiy e’tibor qaratildi:(1-chizmaga qarang)

- Sintaktik me‘yorning buzilishi;
- Zarur tinish belgisining tushirib qoldirilishi;
- Tinish belgisining ortiqcha qo‘llanishi;
- Tire va defisning chalkashishi;
- Qo‘shirnoq shakllarining izchil qo‘llanmasligi;
- Internet diskursidagi punktuatsion soddalashuv.

### **1-chizma. Tadqiqot davomida e’tibor qaratilgan asosiy mezonlar**

#### **Tahlil va natijalar**

Mazkur tadqiqot davomida o‘zbek tilshunosligida punktuatsiya muammolari ilmiy-nazariy qarashlar, me‘yoriy manbalar va zamonaviy yozma nutq amaliyoti asosida tahlil qilindi. O‘rganilgan materiallar shuni ko‘rsatadiki, punktuatsiya faqat tinish belgilarini qo‘yish texnikasi emas, balki yozma nutqning sintaktik, semantik, intonatsion, pragmatik va uslubiy yaxlitligini ta’minlovchi murakkab lingvistik tizimdir. Shu jihatdan punktuatsiya yozma nutqning tashqi bezagi emas, balki fikrning grammatik tuzilishini, mazmuniy chegarasini va kommunikativ yo‘nalishini aniqlashtiruvchi vosita sifatida baholanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori bilan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlangan. Mazkur qarorda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuvi bo‘yicha imlo qoidalarini amaliyotga joriy etish belgilangan bo‘lib, hujjat harflar imlosi, asos va qo‘shimchalar imlosi, qo‘shib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi va ko‘chirish qoidalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu hujjat bevosita punktuatsiya qoidalarining to‘liq tizimini bermasa-da, o‘zbek yozma nutqining umumiy me‘yoriy-huquqiy asosini shakllantiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi o'zbek yozma nutqida punktuatsion xatolar, asosan, vergul, tire, defis, qo'shtirnoq, ikki nuqta va nuqtali vergulning qo'llanishi bilan bog'liq. N. Mahmudov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov va D. Andaniyozova hammuallifligida nashr qilingan "O'zbek tili me'yorlari. Punktuatsiya" qo'llanmasida zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi me'yorlari, tinish belgilarining qo'llanishi hamda ayrim chalkash holatlarni bartaraf etish masalalari yoritilgan [3].

Punktusiya muammolarining asosiy sabablaridan biri tinish belgilarini qo'llashning ko'pincha sintaktik tahlildan ajratib o'rgatilishidir. Aslida vergul, tire yoki ikki nuqtaning qo'yilishi gapning grammatik qurilishi, gap bo'laklari o'rtasidagi munosabat, qo'shma gap qismlarining bog'lanishi, kirish so'z, undalma, ajratilgan bo'lak va uyushiq bo'laklarning mavjudligi bilan belgilanadi. Demak, punktuatsion savodxonlik bevosita sintaktik savodxonlikka tayanadi.

Masalan:

Menimcha bu masala qayta ko'rib chiqilishi kerak. (noto'g'ri)

Menimcha, bu masala qayta ko'rib chiqilishi kerak. (to'g'ri)

Keltirilgan misollarda *menimcha* leksemasi gapning asosiy sintaktik tarkibiga kirmaydi, balki kirish so'z sifatida muallifning vaziyatga nisbatan munosabatini bildiradi. Shu sababli u kirish so'z sifatida vergul bilan ajratiladi. Mazkur holatdan anglash mumkinki, tinish belgisi texnik qoida asosida emas, balki gapning sintaktik va semantik tuzilishi asosida qo'yiladi.

Lingvistik aspekt punktuatsiyaning sintaksis, semantika va matn tuzilishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Tinish belgisi gapdagi grammatik munosabatni aniqlaydi, fikr qismlarini chegaralaydi va yozma nutqda mantiqiy izchillikni ta'minlaydi. Masalan, vergul qo'shma gap qismlarini ajratishi, tire izohlash yoki tenglashtirish munosabatini bildirishi, ikki nuqta esa izoh, sanash yoki sabab-natija aloqasini ko'rsatishi mumkin.

G. Nunberg punktuatsiyani yozma tilning mustaqil lingvistik tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, yozma til og'zaki nutqning oddiy nusxasi emas; u o'ziga xos grafik va struktur qonuniyatlarga ega mustaqil tizimdir [5]. Ushbu yondashuv o'zbek punktuatsiyasini ham faqat intonatsiya yoki pauza bilan izohlash yetarli emasligini ko'rsatadi, chunki yozma nutqda tinish belgisi ba'zan og'zaki pauzadan ham ko'proq vazifa bajaradi, ya'ni u sintaktik chegarani belgilaydi, matnning mantiqiy tuzilishini ochib beradi va muallifning kommunikativ niyatini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, o'zbek punktuatsiyasida me'yoriylik masalasi alohida ahamiyatga ega. Bir matn ichida qo'shtirnoqning turli shakllarda qo'llanishi, tire o'rnida defis qo'yilishi yoki ikki nuqta va nuqtali vergulning deyarli qo'llanmasligi yozma nutq savodxonligiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Me'yoriylik, ayniqsa, rasmiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, darsliklar, OAV matnlari va ta'limiy yozma ishlarda qat'iy talab qilinadi.

Masalan:

Bilim - taraqqiyot asosi. (noto'g'ri)

Bilim — taraqqiyot asosi. (to'g'ri)

Ushbu gaplarda defis emas, tiredan foydalanish o'rinlidir. Defis, odatda, so'z tarkibida qo'llanadi.

Masalan: ilmiy-amaliy, o'zbekcha-ruscha, opa-singil kabi. Tire esa gap bo'laklari o'rtasidagi sintaktik munosabatni ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida qo'shtirnoq masalasida ham izchillik muhim bo'lib, o'zbek tilidagi matnlarda " ", « » va " " shakllari aralash qo'llanishi ko'p uchraydi. Ilmiy matnda bir xil qo'shtirnoq modelini tanlab, butun ish davomida shu modelga amal qilish lozim. Bu holat matnning tashqi ko'rinishigagina emas, balki ilmiy-uslubiy yaxlitligiga ham ta'sir qiladi. O'zbek tilidagi matnlarda, asosan, " " shaklidagi qo'shtirnoq belgisidan foydalaniladi. « » ko'rinishidagi qo'shtirnoq belgisi esa kirill alifbosidagi matnlarda keng qo'llanadi.

Punktusiya qoidalarni o'quvchi va talabalarga o'rgatishda faqat qoidalarni yodlatish yetarli emas. O'quvchi yoki talaba tinish belgisi nima uchun aynan shu o'rinda qo'yilishini tushunishi kerak. Buning uchun punktuatsion tahlil, xatoli matnni tahrirlash, gap sxemasini tuzish, qo'shma gap qismlarini ajratish, kirish so'z va undalmalarni aniqlash kabi mashqlar tizimli qo'llanishi zarur.

Masalan, quyidagi gaplar ustida ishlash samarali metodik natija beradi:

Noto'g'ri: Hurmatli ota-onalar yig'ilish soat 15:00 da boshlanadi.

To'g'ri: Hurmatli ota-onalar, yig'ilish soat 15:00 da boshlanadi.

Keltirilgan gaplarda *hurmatli ota-onalar* birikmasi undalma bo'lib kelgan. Undalma gapning asosiy sintaktik tarkibiga kirmaydi, balki murojaat obyektini bildiradi. Shuning uchun vergul bilan ajratiladi.

Yoki quyidagi gaplardan ham foydalanish mumkin:

Noto'g'ri: Biz quyidagi fanlarni chuqurlashtirib o'qitamiz ona tili, matematika, ingliz tili va informatika.

To'g'ri: Biz quyidagi fanlarni chuqurlashtirib o'qitamiz: ona tili, matematika, ingliz tili va informatika.

Ushbu gaplarda ikki nuqta sanash, aniqlashtirish munosabatini bildiradi. Demak, o'quvchiga qoidani yodlatishdan ko'ra, tinish belgisining vazifasini anglatish muhimroq.

Punktuatsiya kommunikativ maqsadni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Bir xil leksik tarkibga ega gaplar tinish belgisi o'zgarishi bilan turli kommunikativ ma'no kasb etadi:



## 2-chizma. Tinish belgilarining funksiyasini o'rganish jarayonida foydalanish uchun gaplar

Chizmada keltirilgan to'rt gapning so'z tarkibi bir xil, biroq ularning kommunikativ yo'nalishi bir-biridan farq qiladi. Birinchi gap xabar mazmunida, ikkinchisi so'roq, uchinchisi hayrat yoki kuchli emotsiyani ifodalaydi, to'rtinchisi esa davomiylik, ikkilanish, tugallanmagan fikr yoki ichki kechinmani ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, tinish belgisi yozma nutqda nafaqat grammatik, balki pragmatik vazifa ham bajaradi.

D. Kristal internet tili haqidagi tadqiqotlarida raqamli kommunikatsiya tilning qo'llanish shakllarini kengaytirgani, e-mail, chat, blog va tezkor yozishmalar tilning yangi janrlarini yuzaga keltirganini ta'kidlaydi [3]. Ushbu fikr o'zbek tili uchun ham dolzarb bo'lib, bugungi kunda ijtimoiy tarmoq muhitida tinish belgilarining emotsional-ekspressiv va pragmatik vazifasi kuchayib bormoqda.

Bugungi virtual yozishmalarda nuqta, vergul va bosh harflarning tushirib qoldirilishi kabi holatlar ko'plab ko'zga tashlanmoqda. Bu holat norasmiy muloqotda tezkorlik, qulaylik va emotsional yaqinlik bilan bog'liq bo'lsa-da, rasmiy, ilmiy va ta'limiy matnlarga ko'chganida savodxonlik muammosini yuzaga keltiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda "bugun kelasizmi", "ha mayli keyin gaplashamiz", "zo'r ekan!!!", "rahmat 😊" kabi yozishmalar ko'p uchraydi. Bunday yozuvlar norasmiy muloqotda kommunikativ vazifa bajarishi mumkin, biroq rasmiy hujjat, ilmiy maqola, dissertatsiya, ariza yoki ta'limiy yozma ish uslubiga mos kelmaydi. Shu sababli raqamli yozuv madaniyati ham punktuatsiya ta'limining tarkibiy qismiga aylanishi kerak.

Raqamli kommunikatsiyaning yana bir muhim jihati shundaki, unda emoji va grafik belgilar ba'zan tinish belgisi vazifasini bajaradi. Masalan, "Rahmat 😊" yozuvida emoji minnatdorlik ohangini yumshatadi. Biroq akademik matnda bunday belgilardan foydalanish me'yoriy hisoblanmaydi. Demak, raqamli kommunikatsiya va rasmiy yozma nutq o'rtasidagi uslubiy chegarani o'rgatish bugungi ta'lim uchun muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqot asosida o'zbek yozma nutqida quyidagi punktuatsion xatolar ko'proq uchrashi kuzatiladi:

1. **Vergulning tushirib qoldirilishi.** Bu xato, ayniqsa, kirish so'zlar, undalmalar, ajratilgan bo'laklar va qo'shma gaplarda ko'p uchraydi.
2. **Ortiqcha vergul qo'yish.** Bunday holat ko'pincha uyushiq bo'laklarda, "va" bog'lovchisidan oldin yoki gapning tabiiy sintaktik oqimini noto'g'ri tushunish natijasida yuzaga keladi.
3. **Tire va defisni farqlamaslik.** Bu muammo texnik yozuv odatlari bilan ham, punktuatsion bilimning yetarli emasligi bilan ham bog'liq.
4. **Qo'shtirnoq shakllarini aralash qo'llash.** Bu holat ilmiy va rasmiy matnlarda uslubiy izchillikni buzadi.
5. **Ikki nuqta va nuqtali verguldan kam foydalanish.** Bu belgilar murakkab fikrni tartibli ifodalashda muhim bo'lsa-da, amaliy yozuvda ko'pincha oddiy vergul yoki nuqta bilan almashtiriladi.

### Xulosa

Haqli ravishda aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida punktuatsiya muammolarini hal qilish uchun har bir tinish belgisi alohida qoida sifatida emas, balki gap qurilishi va matn mazmuni bilan bog'liq holda tushuntirilishi kerak. Yangilangan me'yoriy qo'llanmalar yaratish lozim. Mavjud manbalar muhim ilmiy asos bo'lsa-da, raqamli kommunikatsiya, internet diskursi, ijtimoiy tarmoq yozuvlari va zamonaviy

matn muharrirlari bilan bog‘liq holatlar alohida izohlanishi maqsadga muvofiq. Lotin yozuvidagi o‘zbek matnlari uchun yagona uslubiy standart ishlab chiqilishi kerak. Ayniqsa, qo‘shirnoq, tire, defis, ko‘pnuqta va sanash belgilarining rasmiy-ilmiy matnlarda qanday qo‘llanishi aniq belgilanishi maqsadga muvofiq. Elektron korpuslarda punktuatsion jihatdan belgilangan matnlar bazasini yaratish zarur. Bunday korpuslar avtomatik tahrir, imlo tekshiruv dasturlari va sun‘iy intellekt asosidagi o‘zbek tili texnologiyalarini rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. OAV, rasmiy hujjatlar va ta‘lim tizimida yagona punktuatsion madaniyatni shakllantirish kerak, chunki ommaviy axborot vositalari va rasmiy yozishmalar jamiyatdagi umumiy yozma madaniyatga bevosita ta‘sir qiladi. O‘zbek tilshunosligida punktuatsiya muammolari yozma nutq madaniyati, sintaktik bilim, imlo me‘yorlari va kommunikativ aniqlik bilan bevosita bog‘liq. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash fikrni aniq, izchil va mantiqan to‘g‘ri ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli punktuatsiya o‘zbek tilining yordamchi sohasi emas, balki yozma nutqni tashkil etuvchi muhim lingvistik tizim sifatida baholanishi kerak. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, punktuatsion savodxonlikni oshirish uchun faqat imlo qoidalarini bilish yetarli emas. Buning uchun sintaktik tahlil, matn tuzilishini anglash, uslubiy me‘yorni saqlash va kommunikativ vazifani to‘g‘ri baholash ko‘nikmalari zarur. Ayniqsa, vergul, tire, defis, qo‘shirnoq, ikki nuqta va nuqtali vergulning qo‘llanishida izchillikni ta‘minlash o‘zbek yozma nutq madaniyatini rivojlantirishning muhim shartidir. Kelgusida o‘zbek punktuatsiyasini korpus lingvistikasi, raqamli kommunikatsiya va avtomatik tahrir texnologiyalari bilan bog‘liq holda tadqiq etish zarur. Sababi, zamonaviy yozma nutq faqat qog‘ozdagi matn bilan cheklanmaydi, u elektron hujjatlar, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ta‘lim platformalari va sun‘iy intellekt tizimlarida ham faol qo‘llanmoqda. Shunday ekan, punktuatsiya masalasi o‘zbek tilshunosligining dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida chuqur o‘rganilishi lozim. Umuman olganda, punktuatsiya o‘zbek tilining yozma madaniyatini mustahkamlovchi muhim vosita bo‘lib, uni o‘rganish zamonaviy o‘zbek tilshunosligining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 339-son qaror. — Toshkent, 1995-yil 24-avgust.
2. Asqarova M.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ergashish formalari va ergash gaplar. — Toshkent: Fan, 1966.
3. Crystal D. Language and the Internet. — 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
4. G‘oziyev H. O‘zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti. — Toshkent: Fan, 1979.
5. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
6. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O‘zbek tili me‘yorlari. Punktuatsiya. — Toshkent: Zamin nashr, 2020–2021. — 232 b.
7. Mamatova M. O‘zbek tilida tinish belgilari (punktuatsiya) // Eurasian Journal of Academic Research. — 2022.
8. Mirtojdiyev M.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
9. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1976.
10. Nunberg G. The Linguistics of Punctuation. — Stanford; Menlo Park: CSLI Publications, 1990. — 141 p.
11. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. — Toshkent, 1988. — 81 b.
12. Omonturdiyev J., Omonturdiyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (qo‘shma gap va punktuatsiya). — Termiz, 2014. — 101 b.
13. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek tilida punktuatsiya. — Toshkent, 1955.
14. Shoabdurahmonov Sh. Punktuatsiya qoidalari. — Toshkent, 1958.
15. Валгина Н. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. — М., 2004. — 213 б.
16. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. — М.; Л., 1960.